

OTA-ONALAR MUNOSABATLARI VA BOLA PSIXIKASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Karimova Gulnora Azamat qizi

Samarqand viloyati Urgut tumani

150-maktabning psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ota-onalar munosabatlari va ularning bola psixikasiga ta'sir etuvchi asosiy omillar yoritilgan. Oila bola shaxsining ilk ijtimoiylashuv muhiti bo'lib, undagi psixologik iqlim bolaning emotsional holati, xulq-atvori va shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maqolada ota-ona munosabatlari turlari, tarbiya uslublari hamda bola psixikasiga ta'sir etuvchi ijtimoiy va psixologik omillar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ota-ona munosabatlari, bola psixikasi, oilaviy muhit, tarbiya, emotsional rivojlanish, psixologik iqlim, shaxs shakllanishi, ijtimoiylashuv, stress, motivatsiya.

KIRISH

Ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlar bola psixikasining shakllanishida eng muhim omillardan biridir. Bola shaxs sifatida ilk qadriyatlarni, xulq-atvor me'yorlarini va emotsional munosabatlarni aynan oilada o'zlashtiradi. Shu sababli oiladagi psixologik muhit bolaning kelajakdagi hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar munosabatlari iliq, qo'llab-quvvatlovchi va demokratik bo'lsa, bola o'zini xavfsiz his qiladi, o'ziga ishonchi ortadi va ijtimoiy faolligi rivojlanadi. Bunday muhitda ulg'aygan bolalarda emotsional barqarorlik va yuqori motivatsiya shakllanadi.

Aksincha, oilada doimiy nizolar, befarqlik yoki haddan tashqari qattiq nazorat mavjud bo'lsa, bola psixikasida salbiy o'zgarishlar yuzaga kelishi mumkin. Bu holatlar xavotir, agressiya, o'ziga ishonchsizlik va ijtimoiy chekinishga olib keladi. Bola psixikasiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri ota-onaning tarbiya uslubidir. Avtoritar uslubda ota-onalar qat'iy nazoratni ustun qo'yadi, bu esa bolada qo'rquv va itoatkorlikni kuchaytirishi mumkin. Demokratik uslub esa bola fikrini inobatga olib, mustaqillik va mas'uliyatni rivojlantiradi. Shuningdek, emotsional qo'llab-quvvatlash ham muhim omil hisoblanadi. Ota-onaning mehr-oqibati va e'tibori bola psixikasining barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

Ijtimoiy omillar ham bola psixikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tengdoshlar bilan munosabatlar, maktab muhiti va jamiyatdagi qadriyatlar bola xulq-atvorining shakllanishiga bevosita ta'sir etadi. Raqamli muhit va internetdan foydalanish ham

zamonaviy sharoitda muhim omilga aylangan. Nazoratsiz internet foydalanish bola emotsional holati va diqqat barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Oilaviy qadriyatlarning bir-biriga mos kelishi, funktsional-rolli o'zaro muvofiqlik, ijtimoiy - rolli adekvatlik, mikroijtimoiy munosabatlarga moslashuvchanlik, emotsional to'yinganlik, oilaviy munosabatlarni uzoq muddat davom etishiga intilish va boshqalar oilaning psixologik salomatligini kompleks tarzda baholash mezonlari hisoblanadi. Oiladagi muhim masalalardan biri bo'lmish emotsional qo'llab-quvvatlashning muvaffaqiyatli kechishi eng avvalo, oila a'zolarining yaqinlari bilan shaxslararo munosabatlari hamda ulardagi emotsional fonning qulayligini saqlab qolishiga intilishlariga bog'liqdir. Oilaviy munosabatlarga moslashish oilaning kattalarni ish kunidan so'ng oilani ijtimoiy-psixologik muhitiga moslasha olishi bilan tavsiflanadi. Har qanday sog'lom oilaning ajralmas qismi - bu oilaviy maqsadlarning yagonaligidir. Maqsadga erishish usullarini tanlash va uning shakllanishi hamda kutilayotgan natijalarda har bir oila a'zosining ehtiyojlari, qiziqishlari, intilishlari, istak-xoxishlari va ustanovkalari namoyon bo'ladi. Uzoq umr birga bo'lishga intilish doimo oilaviy maqsadlarga qiziqish, ularni aqlan rejalashtirish va maqsadga erishishi uchun butun oila a'zolari faolligining ta'minlashni o'zida mujassamlashtiradi.

Oilaviy yakdillik - bu oilaning emotsional va kognitiv "Biz"idir. Oilaviy yakdillik shaxsning o'z-o'zini anglashi bilan bog'liq va "Biz"ga qarshi "Men"ni namoyon qilishi mumkin. Oilaning barqarorligi "o'zgarishlardagi o'zini saqlab qolish" bilan bir xil bo'lib, keyinchalik taraqqiy etish uchun oilaviy nizolarni nazorat qilish va hayotiy o'zgarishlarga moslasha olishi, oilaviy yakdillikni saqlay olishi bilan tavsiflanadi. Zardushtiylikning qadimgi kitobi-"Avesto"da oila muqaddas dargoh ekanligi, oila barqarorligida er-xotinning farzand tarbiyasi to'g'risidagi bir qator fikrlar bayon etilgan

XI asr buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig"- "Saodatga boshlovchi bilim" kitobida farzand ko'rish va unga tarbiya berish har bir inson uchun buyuk baxtdir. Lekin, bu narsa ota-onaga juda katta mas'uliyat yuklaydi, uning uddasidan chiqmoq har bir ota-ona uchun ham farz, ham qarzdur – deydi. Olim oilaviy tarbiya bola axloqiy taraqqiyotining asosi deb hisoblagan. Rus psixologi V.I.Silevanov oilada shaxsni shakllantirish jarayonini o'rganib, baxtli bolalik-bu oiladagi quvonchli hamjihatlikning hamda ota-onaning o'z bolalariga g'amxo'rligining samarisidir degan xulosaga keladi.

A.Y.Varga va V.V.Stolinning fikriga ko'ra, "ota-ona munosabati"-bu bolaga bo'lgan rang-barang tuyg'ular tizimi, xulq-atvor streotiplari, ular bilan muloqot ular bilan muloqot qilish amaliyoti bola shaxsi uning xulqi xarakterini tushunish va qabul qilish xususiyatidir. Hozirgi kunda psixologlar sotsiologlar va keng jamoatchilik tomonidan oila va oilaviy tarbiya muammosi dolzarb masala sifatida e'tirof etib

kelinmoqda. Jumladan E.G‘oziev, V.M.Karimova, B.K.Qodirov, N.Sog‘inov G‘.Shoumarov singari psixologlar tomonidan o‘zbek oilalarining ijtimoiy-psixologik masalalariga doir tadqiqotlar olib borilgan. Psixolog M.M.Raximova va L.S.Luchanskaya oilaviy munosabatlarning bolalar soni va ota-ona bilan bolalar muloqotiga bog‘liqligini tahlil qiladilar.

V.M.Karimovanning “Yoshlarda o‘zbek oilasi haqidagi ijtimoiy tasavvurlar” deb nomlangan ilmiy ishida o‘zbek oilasidagi ijtimoiy tasavvurlarning turli guruhlarda namoyon bo‘lishini empirik jihatlariga asoslanib tadqiq etiladi va oila to‘g‘risidagi ijtimoiy tasavvurlar shaxsning oilaviy munosabatlar doirasidagi xulq-atvorni boshqaruvchi va aniq sharoitlarga moslashtiruvchi vazifalarni bajarishini ilmiy asoslab berishga harakat qiladi. Shuningdek, empirik tadqiqot jarayonida oilaviy ijtimoiy tasavvurlarning turli yosh va jins guruhlari o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishi, hamda ularning shaxs va guruhlarning hayot tarzi, ma’lumot darajasi, kasbkori va hayotiy tajribasiga bog‘liqligi isbot qilinadi. Unda birinchi marta o‘zbek ayoli va erkakning oiladagi psixologik mavqei, er-xotin munosabatlarining bolalar tarbiyasi va oilada tutgan o‘rinlari taqsimotiga ta’siri, yoshlarda to‘g‘ri maqbul oilaviy ijtimoiy tasavvurlarning shakllanish shart-sharoitlari va psixologik omillari yoritildi.

Professor E.G‘oziev boshchiligidagi Toshkent Davlat Universitetida o‘tkazilgan qator ilmiy tadqiqot ishlari oilada bola tarbiyasining etnopsixologik muammolariga bag‘ishlangan. O‘zbek oilasida tarbiya mohiyati mazmuni tarbiyaning kundalik va istiqbol rejalarga bolalarga ta’sir o‘tkazish vositalarini tanlash va undan unumli foydalanish o‘ziga xos xususiyatga ega. Chunki uning asosida xalq an’analari yotadideb yozadi muallif o‘zbek xalqining etnopsixologiyasidan unumli foydalanishdan iborat. Har tomonlama taraqqiy etgan inson shaxsini tarkib toptirishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev barkamol shaxsni shakllantirish ishining hayotiy zarurati va dolzarbligi haqida gapirar ekan, “Inson shaxsini, uning yuksak ma’naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy istiqloq mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni boy madaniy merosimiz hamda tarixiy qadriyatlarimizga hurmat-e’tibor, mustaqil Vatanimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash talablari oldimizga muhim vazifalarni qo‘ymoqda”, deb alohida ta’kidlaydilar. Bu vazifalar, birinchi navbatda kelajakning bunyodkorlari bo‘lmish yosh avlodning bilim olish, yuqori malakali kadrlar bo‘lib o‘z yurti va halqiga sitqidildan mehnat qilish, ozod yurt ravnaqi va baxt-saodati uchun halol mehnat qilishga o‘rgatishni nazarda tutadi. Zero, mustaqillik aynan fidoiy, o‘z Vatani manfaatlariga g‘oyat sadoqatli, yuqori malakali kadrlarning jamiyatni boshqarishini taqozo etadi-deydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda quyidagi tamoyillarga asoslanish lozimligi tavsiya etiladi. Jumladan;

- Yoshlarda ijobiy xulq-atvor va xarakter xislatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy jarayonni tashkil etish.
- Psixolog yoshlardagi eng yaxshi insoniy fazilatlarni ko'ra olishi va ularda o'ziga ishonish, o'z xulqini o'zi yaxshilash motivlarini shakllantirishi zarur.
- Yoshlarni o'zlaridagi ijobiy xarakter hislatlarini anglashini rag'batlantirish.
- Yoshlarni o'z xulq-atvorini o'zi baholashga o'rgatib borish.
- Yoshlar oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda erishgan yutuqlarini rag'batlantirish.
- Yoshlarni kasbga bo'lgan qiziqishlarini oshirish.
- Yoshlarni bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etishlarini nazorat qilish.
- Yoshlarga tarbiya berishning optimal strategiyasini aniqlash.
- Yoshlarni oilaviy hayotga har tomonlama: psixologik, huquqiy, tibbiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va ma'rifiy jixatdan tayyorlab borish.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ota-ona munosabatlari va bola psixikasiga ta'sir etuvchi omillar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, bola shaxsining sog'lom rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ijobiy oilaviy muhit, demokratik tarbiya uslubi va emotsional qo'llab-quvvatlash bola psixikasining barqaror shakllanishini ta'minlaydi. Oila, maktab va ijtimoiy muhit hamkorligi esa barkamol shaxsni tarbiyalashning asosiy shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Badritdinova, M. B. (2019). HE DEVELOPMENT OF METAMETHODS ASSOCIATED WITH COGNITIVE METHODS. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(6), 483-489.
2. Badritdinova, M. B. (2019). COGNITIVE METHODS AND PERSON NATIONAL PECULIARITY. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(10), 380-386.
3. Oribboyeva, D. D., & Botirova, Z. (2024). Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish xususiyatlarining rivojlanishi. Science and Education, 5(3), 541-544.
4. Kamolova, A. (2022). The Scientific and Theoretical Foundations of Studying the Sources of Popular Pedagogy in Educating the Younger Generation. Science and Education" Scientific Journal/Impact Factor, 3, 590-592.
5. Ziyo.net